

E. VOHIDOV IJODINING MAKTABLARDA O'QITILISHIDA YANGICHA YONDASHUVLAR**Maxmudjonova Begoyim***Urganch davlat pedagogika instituti filologiya va tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Erkin Vohidov ijodining maktablarda o'qitilishidagi yangicha yondashuvlar haqida fikr mulohazalar berilgan. O'quvchilar nutqini shakllantirishda she'riy nutqning ahamiyati muayyan misollarda ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *metodlar, matn, guruhlarda ishlash, darajalanish, sharhlash*

Annotatsiya: *V dannoy statye privodyatsya mneniya o novyx podxodax k prepodavaniyu tvorchestva Erkina Vaxidova v shkolax. Znachenije poeticheskoy rechi v formirovanii rechi uchayixsya raskryvayetsya na konkretnyx primerax.*

Klyuchevyye slova: *metody, tekst, rabota v gruppax, klassifikatsiya, interpretatsiya.*

Abstract: *In this article, opinions are given about new approaches to the teaching of Erkin Vahidov's work in schools. The importance of poetic speech in the formation of students' speech is revealed in specific examples.*

Key words: *methods, text, work in groups, classification, interpretation.*

O'quvchilar nutqining o'sish maktabda turli darajalari belgilab boriladi. Yetarli bo'lmagan ko'rsatkichlar bo'yicha ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib boriladi. Bu ko'rsatkichlarni quyidagicha belgilash mumkin:

- 1. Kichik hajmdagi matnni o'qish tezligi...**
- 2. Matn bo'yicha savollarga qaytargan to'g'ri javoblar soni...**
- 3. O'quvchining bog'lanishli nutqi (og'zaki nutq shakllari nazorat qilinadi).**
- 4. O'quvchining muayyan matn mazmunini qayta hikoyalash va bayon qilish darajasi.**
- 5. Kitobxonlik darajasi... (mustaqil o'qilgan badiiy asarlar soni; asar haqida o'z mustaqil fikrini bayon qila olishi; asar voqealari bilan qahramonlariga munosabat bildira olish darajasi).**

Belgilangan darajalardan qaysi biriga o'quvchilarning imkoniyatlari yo faoliyati javob bermasa, yordamchi topshiriqlar vositasida bu ko'rsatkichni ko'tarishda hamkorlikda ish olib borishi lozim. Shundagina ta'lim-tarbiya samaradorligi ta'minlanishiga erishiladi. E. Vohidov ijodi namunalari boshlang'ich sinflarda "Chig'iriq" deb nomlanadigan interfaol usulda tahlil qilinsa, mashg'ulotning samaradorligi oshadi. Amaldagi o'quv dasturida shoirning "Kamtarlik haqida" she'rini 3-sinfda o'qib o'rganish rejalashtirilgan. Dastur talablariga ko'ra she'rni ifodali o'qishga o'rgatish va shoir tasvirlagan majoziy obrazlar: choynak va piyola timsolida tasvirlangan kamtarlik bilan manmanlik, kibr kabi noxush xislatlar qiyoslanadi. Ularning inson hayotidagi ahamiyati yoritiladi.

Bu usulda sinfdagi o'quvchilar besh yoki olti kishilik kichik guruhlariga bo'linishadi. Kichik guruh a'zolarining har biri o'z raqamiga ega bo'ladi. Guruhlarning a'zolari sakkiz misrali she'rning tahliliga qo'llariga berilgan kartochkalarga tayangan holda kirishadilar. Har bir kichik guruh kartochkalardagi topshiriqlarni o'zicha bajaradi, ya'ni kartochkalardagi topshiriqlar bo'yicha javoblarini tayyorlaydilar.

Barcha kichik guruhlarning tayyorgarligi nihoyasiga yetgach, taqdimot boshlanadi. Shunda o'qituvchi qandaydir bir raqamni, misol uchun, "4" raqamini aytadi. Har bir guruhning 4-raqamli ishtirokchisi o'z guruhining javoblarini taqdim qiladi. Shunday qilinganda, kichik guruhlardagi eng a'lochi o'quvchining har safar taqdimotchi bo'lib qolish xavfi bartarf qilinadi. Bir kichik guruhning sakkiz misra yuzasidan beradigan javobini eshitishga ko'p vaqt ketib qolmasligi uchun har biri guruhchadan ikkitadan savolga javob tinglanadi. Savolga qaysi raqamdagi o'quvchi javob qilsa, uning javobiga boshqa guruhlardagi ayni shu raqamli o'rganishlari, matn ustida mustaqil izlanish olib borib, uning badiiyligini, ta'sirchanligini ta'minlagan omillar haqida o'z qarashlarini bayon qilishlariga imkon bermaydi. Oddiy va 6-sinf o'quvchilari dunyoqarashini, fikrlash salohiyatini o'stirishga xizmat qilmaydigan bunday savol va topshiriqlar 5-sinf darsligidan ham joy olganligi achinarli hol.

Ushbu darslikda ham mualliflar o'tgan asrning 70-80-yillarida yaratilgan darsliklarga xos tushuntirish, asar mazmunini bayon qilish usulini qo'llaganliklari, o'quvchilar munosabat bildirishlari, to'ldirishlari, to'g'rilashlari mumkin. Navbatdagi savollarga beriladigan javob ham shu yo'sinda tinglanadi va muhokama etiladi. Bunday qilinsa, har qanday savolga hamisha javob bera oladigan o'quvchilargina emas, sinfdagi barcha o'smirlarning faollashishiga erishiladi.

Kichik guruhlarning taqdimoti tugagandan so'ng o'qituvchi javoblarni umumlashtiradi, kichik guruhlarni baholaydi, asarning e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlariga qo'shimcha ravishda to'xtaladi. Bir kishi bergan javobga qarab bir kichik guruhdagi barcha o'quvchilarga bir xil baho qo'yilishi juda muhimdir. Bu hol o'quvchilarda o'zaro hamkorlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiy ta'limning "Chig'iriq" usuli kichik guruhlardagi barcha o'quvchilarning qo'yilgan muammo yuzasidan barcha savollarga har doim tayyor turishlarini ta'minlashi, intellektual imkoniyat va psixologik aktivligi turlicha bo'lgan o'quvchilarni faollashtirishga qaratilganligi bilan samara keltiradigan metoddir. "Chig'iriq" usuli qo'llanganda amalga oshiriladigan o'qitish jarayoni chizmada quyidagicha aks ettirilishi mumkin:

5-sinfdan boshlab o'quvchilar diqqati shoir hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar va ijod namunalari tahliliga qaratiladi.

Erkin Vohidov tarjimai holiga oid ma'lumotlardan so'ng 5-sinfda badiiy asar tilini o'rganish masalasiga o'quvchilar e'tibori tortiladi. Bu masala o'rganilayotgan asarning janr xususiyatlariga bog'lab yoritish yo'li bilan hal etiladi. Lirik asarlar nasriy asarlardan janr xususiyatlarga ko'ra farq qilganiday, badiiy tilining o'ziga xosligi

jihatidan ham ajralib turadi. Lirik she'riyatda poetik fikr his-hayajonli, ohangli, ma'lum ichki tartibli tizma nutq (vazn) orqali ifoda qilinadi. Shoir bir she'r doirasida bir necha she'riy san'atlardan foydalanib, poetik obraz qirralarini, uning ichki yashirin ma'nolarini yoritib berishga muvaffaq bo'lishi mumkin.

Adabiyotdan takomillashtirilgan va uzviylashtirilgan o'quv dasturiga ko'ra xalq shoiri E.Vohidov ijodi 5-sinfda "Nido" dostonidan parcha (3 soat)[131] va 6-sinfda esa "O'zbekim" qasidasini (2 soat) o'rganish ko'zda tutilgan. 2017 yilda chop etilgan "Adabiyot-5"[118] darsligida "Nido" dostonini o'rganish uchun ham shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot va "Nido" dostonidan qisqartib olingan matn, so'ngra doston haqidagi maqola berilgan. "Adabiyot-6"[127] darsligida esa E.Vohidov hayoti va ijodi haqida ma'lumot bilan qasida haqida nazariy tushuncha berish ko'zda tutilgan. "O'zbekim" qasidasini,

Afsuski, 6-sinfda liro-epik janr haqida nazariy tushunchani o'zlashtirmagan holda o'quvchilar doston janridagi hajman ko'lamli asarni o'qib o'rganish va tahlil qilishlari qiyinroq kechadi. Mazkur metodik muammoni hal qilish uchun esa asar matnini o'qib o'rganish jarayonida o'qituvchidan doston janriga oid muayyan nazariy tushuncha berish yo'li bilan o'quvchilarni tahlilga tayyorlash talab etiladi. Darslik mualliflari doston haqida o'z qarashlarini o'quvchiga tayyor holda taqdim etganlari esa zamonaviy ta'lim falsafasi mohiyatiga, bugungi metodik talablarga mutlaqo mos kelmaydi.

XXI asr ta'limi talab va ehtiyojlariga javob berolmasligi barchaga ayon. Holbuki, o'quv materiallari qatorida ularni o'quvchi idrok etishga, asar mazmun-mohiyatini tushunib tahlil qilishga yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar bilim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, faolligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Matchonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? -T.:O'qituvchi, 1993. –140 B.
2. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: O'qituvchi, 1996. 208 – B.
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. - T.: Yangi asr avlodi, 2004 . 111 - b
4. Mirqosimova M. Adabiy suhbatlar. – T.: 2000. 110 – B.
5. Mirqosimova M. Adabiy tahlil metodikasi. -T.:O'qituvchi, 1998. 90 – B.